

*Toshkent arxitektura-qurilish
universitet rektorining 2024-yil
17-октябрдаги 403-сон
buyrug'iga
6-ilova*

**Toshkent arxitektura-qurilish universitetida
kontragentlarni tekshirishga oid
YO'RQINOMA**

I.-Umumiy qoidalar

1. Ushbu Yo'rqnoma Toshkent arxitektra-qurilish universitetida (keyingi o'rnlarda - Universitet) tomonidan xarid qilish tartib-taomillari, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzishda ishtirokchilarini majburiy tekshirishning (keyingi o'rnlarda Xarid jarayonlari ishtirokchilarini tekshirish) asosiy talablari, tartibi va usullarini belgilaydi.

2. Xarid jarayonlari ishtirokchilarini tekshirishning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- universitet xodimlarining manfaatlar to'qashuvni va shaxsiy manfaatdorligi bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyaviy xatarlarni kamaytirish;
 - insofsiz ijrochi bilan shartnoma tuzish xatarini kamaytirish;
 - xarid jarayoni ishtirokchisining shartnomada belgilangan tovarlarni yetkazib
-
- berish yoki xizmat korsatish, ishlarni bajarish imkoniyatini baholash;
 - kontragent bilan shartnoma tuzish to'g'risidagi qarorni tegishli darajada ehtiyyotkorlik bilan qabul qilish.

3. Xarid jarayonlari ishtirokchilarini tekshirish xaridning barcha ishtirokchilari, shu jumladan, ular o'rtasidagi aloqa mavjudligi ehtimoli nuqtai-nazaridan ham amalga oshiriladi.

4. Tekshiruv ushbu Yo'rqnomaning 7 va 8-bandida ko'rsatilganlardan tashqari barcha yangi kontragentlarga nisbatan, shuningdek amaldagi kontragentlarga nisbatan kamida bir yilda bir maria amalga oshiriladi.

5. Ushbu Yo'rqnomaning 7 va 8-bandida ko'rsatilgan holatlardan tashqari, kontragent tekshiruv natijalari bo'yicha xulosani olmasdan turib shartnomani imzolash va (yoki) to'lovlarni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

6. Elektron do'kon va boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion shaklida otkazilgan xaridlar boyicha kontragentlar tekshirilmaydi.

7. Shuningdek, tekshiruv quyidagi kontragentlarga nisbatan amalga oshirilmasligi mumkin:

Kommunal va boshqa shu kabi xizmatlarni (shu jumladan, elektr ta'minoti, gaz ta'minoti, issiqlik ta'minoti, muhandislik-texnika ta'minoti, suv ta'minoti, suv chiqarish, oqava suvlarni tozalash, qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish (kodnish) tarmoqlariga ulanish), shuningdek davlat tomonidan tartibga solinadigan

tovarlar (ishlarning, xizmatlarning) narxlar (tariflar) bo‘yicha yetkazib beruvchi hisoblangan kontragentlar;

O‘zbekiston Respublikasining tabiiy monopoliyalari hisoblangan kontragentlar.

8. Ushbu Yo‘riqnomada quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llanilgan:
ijrochi - Universitetda tuzilgan xarid komissiyasi a’zolari; kontragent - Universitetning xarid jarayonlari doirasida shartnomaviy munosabatlarga kirishishni rejalashtirayotgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

kontragent/kontragentning benefitsiar egasi (yakuniy benefitsiar) - kontragentning xususiy egasi bo‘lgan yoki ushbu Kontragent uchun majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar berish, qabul qilinayotgan qarorlarga ta’sir ko‘rsatish yoki boshqacha tarzda uning harakatlarini bevosita yoki bilvosita nazorat qilish huquqi yoki imkoniyatiga ega bo‘lgan jismoniy shaxs;

korrupsiyaviy xarakatlar - xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo‘lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo‘lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog‘oz, boshqa ko‘rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar qilish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatichiliklarni soddalashtirish uchun to‘lilar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o‘z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

manfaatlar to‘qnasliuvi - universitet xodimining shaxsiy manfaati (bevosita yoki bilvosita) u tomonidan xizmat vazifalarini tegishli tarzda bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoki ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan va xodimning shaxsiy manfaati bilan universitet manfaatlari orasida ziddiyat yuzaga kelayotgan yoki kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat;

maxfiy axborot - bu olinishi, ishlanishi, uzatilishi yoki foydalanishi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki axborot egasining ichki hujjatlariga muvofiq cheklanadigan har qanday shakldagi axborot;

tashabbuskor - universitet tarkibiy bo‘linmasi;

xodimning shaxsiy manfaatdorligi - universitet xodimi, uning yaqin qarindoshi yoki xodim bilan bog‘langan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat vazifalarini tegishli tarzda bajarishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlari) pul mablagdari, moddiy va nomoddiy qadriyatlar, boshqa mulk, foya, imtiyoz va afzalliklar ko‘rinishidagi shaxsiy foya olish;

yaqin qarindoshlar - qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo‘lgan shaxslar, ya’ni ota-onasi, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka va opa-singillari.

II. Tekshiruvni boshlash tartibi, tekshiruv uchun talab qilib olinadigan hujjatlar va axborot manbalari

9. Xarid jarayoni doirasida uning ishtirokchilarini tekshirish xarid komissiyasi tomonidan ishtirokchilar bergen takliflar solingen konvertlarni baholash uchun ochilganidan keyin, biroq xarid qilish tartib-taomillari yakunlari bo'yicha g'olib bo'lgan taklifning aksepti to'g'risida qaror qabul qilinguniga qadar amalga oshiriladi.

10. Xarid jarayoni doirasida qonunchilik va universitetning ichki hujjatlari tomonidan o'rnatilgan muddatlarga rioya qilinishi ustidan tekshiruvivni amalga oshirish uchun mas'ul - tegishli Xarid komissiya raisi yoki shartnomaga tashabbuskori hisoblanadi (agar xarid to'g'ridan-to'g'ri shartnomaga bo'yicha amalga oshirilayotgan bo'lsa).

Bunda, ijrochi Xarid komissiya raisi tomonidan tayinlanadi.

11. Kontragentlar tekshiruvi ijrochi tomonidan hujjatlar tashabbuskoridan ushbu Yo'riqnomaning 15-bandida ko'rsatilgan hujjatlar olingan sanadan 5 kundan ortiq bo'limgan muddatda amalga oshiriladi.

12. Tekshiruvni belgilangan muddatlarda o'tkazish imkonni bo'limgan taqdirda uning davomiyligi Xarid komissiyasi raisi bilan kelishilgan holda 3 kundan ortiq bo'limgan muddatga yozma shaklda uzaytirilishi mumkin.

13. Kontragentlarning tekshirish shoshilinch tartibda o'tkazish zaruriyati mavjud bo'lgan hollarda, tashabbuskor tomonidan shoshilinchlilik asoslangan, tekshirishni o'tkazishning zarur muddatlari ko'rsatilgan xizmat xati bilan Xarid komissiyasiga murojaat qiladi. Shoshilinch tekshiruv o'tkazish to'g'disidagi qaror Xarid komissiyasi qarori asosida yo'l qo'yiladi.

14. Kontragentlarni tekshirish uchun hujjatlarni to'plash va taqdim qilish uchun Xarid komissiyasi raisi yoki tashabbuskor (agar xarid to'g'ridan-to'g'ri shartnomaga bo'yicha amalga oshirilayotgan bo'lsa) mas'ul bo'ladi.

15. Kontragentni tekshirish uchun ijrochiga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- kontragentning o'zi ushbu Yo'riqnomaning 1-ilovasiga muvofiq shaklda to'ldirgan yakuniy benefitsiarlari to'g'risidagi ma'lumotnoma;

- kontragentdan olingan hujjatlar nusxasi (ushbu Yo'riqnoma 2-ilova);

- kontragentning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlari (mavjud bo'lsaj nusxasi (siyosatlar, nizomlar, hulq-ahloq qoidalari, korrupsiyaga qarshi dasturlar va b.).

16. Ushbu Yo'riqnomaning 15-bandida ko'rsatilgan hujjatlarni olish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq majburiy hisoblanadi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha kontragentning ichki hujjatlari va yakuniy benefitsiarlar to'g'risidagi ma'lumotnoma bundan mustasno. Kontragentning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlar va yakuniy benefitsiarlar to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etishni rad etgan taqdirda, tashabbuskor bu haqda Kontragent ustidan taqdim etilgan hujjatlar asosida tekshiruvni amalga oshiradigan ijrochiga xabar beradi.

17. Kontragentdan olingan barcha hujjatlar notarial tarzda yoki kontragentning vakolatli vakili tomonidan tegishli tarzda tasdiqlangan bo'lishi lozim. Taqdim etiladigan hujjatlar amal qilayotgan bo'lishi, davlat reestrlari hujjatlari esa

tekshiruv sanasiga qadar 30 (o'ttiz) kundan ortiq bo'lmagan muddatda olingen bolo'shi kerak.

18. Kontragentni tekshirish uchun ma'lumotlar to'plash ijrochi tomonidan kontragent, uning egalari va rahbarlari, faoliyati to'g'risida yaxlit va xolis fikrga ega bo'lish, shuningdek undan olingen hujjat va ma'lumotlarning ishonchliligi, shu jumladan, ularning ishonchsizligi bo'yicha belgilari yo'qligini (soxtalashtirish alomatlari mavjud emasligini) baholash uchun amalga oshiriladi.

Kontragentlarni tekshirish doirasida ijrochi quyidagilarni tahlil qiladi:

- kontragent tomonidan taqdim etilgan axborot va hujjatlar. Ushbu Yo'riqnomaga 2-ilovada ko'rsatilgan hujjatlarni kontragentdan olish imkonini bo'lmaganda yoki olingen hujjat yoki axborotlarning ishonchli emasligi (soxtalashtirilgani) belgilari mavjud bo'lgan hollarda ijrochi kontragent tekshiruvi natijalari to'g'risidagi xulosada tegishli belgi qo'yadi;

- ochiq manbalardan olingen ma'lumotlar. Ijrochi 3-ilovada ko'rsatilgan axborot manbalaridan foydalanishi mumkin. Ushbu ro'yxat tavsiyaviy bo'lib, zaruriyat tug'ilganda ijrochi boshqa manbalardan foydalanishi mumkin;

- tegishli universitetlarga rasmiy so'rovnama yuborish yo'li bilan olingen hujjatlar;

- universitetning ichki resurslari, shu jumladan, kontragentlar tekshiruvlari reestri, xodimlarining manfaatlar to'qnashuvi reestri va boshqalar.

19. Kontragentni tekshirish uchun ishlatalgan manbalar qonuniylik va xolislik talablariga javob berishi kerak.

20. Zaruriyat bo'lganda ijrochi tekshiruv davomida kontragentlarni joyiga chiqib, o'rganishi mumkin. Bu kabi tekshiruvni o'tkazish uchun ijrochi o'z bo'linmasi raxbari bilan kelishishi lozim.

Sayyor tekshiruv davomida universitet rektori (vakolatli vakili) bilan uchrashuv bayonnomasi tuzilib, unda kontragentdan olingen, dastlab ijrochi tomonidan asl nusxalari bilan taqqoslangan hujjatlarning tasdiqlangan nusxalari sanab o'tiladi. Olingen hujjatlar nusxalarining va (yoki) kontragentning vakolatli vakili tomonidan taqdim etilgan izohlar ro'yxati tekshirilayotgan kontragentning vakolatli vakili va ijrochi tomonidan imzolangan alohida ro'yxat ko'rinishida rasmiylashtirilishi va uchrashuv bayonnomasiga ilova qilinishi kerak.

III.Kontragentlarni tekshirish metodologiyasi

21. Kontragentlarni tekshirish quyidagi asosiy yoriralishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

1) kontragentning huquq layoqati, moliyaviy barqarorligi, ishonchliligi va u bilan bo'lgan o'zaro munosabatlar tarixini tekshirish, shu jumladan:

a) shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, xodimlar va boshqa resurslarning mavjudligi;

b) shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egalik;

v) soliqlar va yigrimlarni toriash bo'yicha muddati origan qarzdorlikning mavjud emasligi;

g) kontragentlarga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;

d) insofsiz ijrochilarining yagona reestridda qayd etilmaganligi;

2) kontragentning ish sohasidagi obro‘-etibori;

3) manfaatlar to‘qnashuvi mavjud emasligini tekshirish.

Ko‘rsatilgan yo‘nalishlar bo‘yicha tekshirish o‘tkazish majburiy hisoblanadi. Tekshiruv yo‘nalishlari ro‘yxati har bir alohida holatda ijrochining xarid komissiyasi qarori bilan kelishilgan talabi bilan kengaytirilishi mumkin. Bunda, tekshirish yo‘nalishi davlat xaridlarini tartibga soluvchi qonunchilikka zid bo‘lishi va (yoki) raqobat tamoyillarini cheklashga olib kelishiga yo‘l qo‘ylmasligi lozim.

22. Ijrochi foydalanish mumkin bo‘lgan axborot manbalarining tahlilini amalga oshiradi va 24-26-bandlarda korisatilgan har bir yoriialishga nisbatan quyidagi kontragentning tekshiniv natijalari to‘g‘risida xulosada korisatilgan ma‘lumotlarning bor-yo‘qligini belgilaydi.

23. Ushbu Yo‘riqnomaga amalga kiritilgunga qadar shartnomaviy munosabatlarda bo‘lgan universitetning amaldagi kontragentni tekshirishda ijrochi bundan awalgi shartnomaviy munosabatlarning davomiyligi, ushbu kontragent bilan o‘zaro harakat tajribasi va uning universitet bilan avval tuzilgan shartnomalar bo‘yicha majburiyatlarini bajarishdagi halolligini tekshiradi.

Yangi kontragentni tekshirishda ijrochi kontragent tomonidan shu kabi shartnomalarning bajarilganligi to‘g‘risidagi axborot va boshqa buyurtmachilar (mijozlar) bergan tavsiyanomalarini tahlil qiladi hamda imkon darajasida ushbu kontragentning boshqa mijozlari oldidagi shartnomaviy majburiyatlarini bajarishdagi halolligini tekshiradi.

24. Kontragentning huquq layoqatini, moliyaviy barqarorligi, ishonchliligi va u bilan bo‘lgan munosabatlar tarixini tekshirish doirasida ijrochi quyidagi mariumotlarni aniqlaydi:

- tadbirkorlik sub‘ektlarining Yagona reestridda kontragentning borligi;
- kontragentning yuridik va amaldagi manzili;
- kontragent rahbari va ta’sischilarining F.I.Sh.;
- kontragent asosiy faoliyat turining xarid predmetiga muvofiqligi;
- kontragent faoliyatini tugatish, qayta tashkil etish, o‘ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;
- kontragentda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ravishda litsenziyalanishi kerak bo‘lgan faoliyat turlarini amalga oshirish uchun zarur litsenziyalarning (ruxsatnomalar) mavjudligi;
- kontragentda ochiq axborot, taqdim etilgan hujjatlar va buxgalteriya hisobdorligiga muvofiq, asosiy mablagdar, xususiy kapital, xodimlar va boshqa texnik, moliyaviy, moddiy va universitet oldidagi majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan boshqa resurslarning mavjudligi;
- kontragent nomidan universitet bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishayotgan shaxsda tegishli vakolatning mavjudligi;
- kontragent maxsus axborot portalida insofsiz ijrochilarining yagona reestriga kiritilmaganligi;

- kontragentning so'nggi ikki yil ichida universitet oldidagi shartnomaviy majburiyatlarning o'z vaqtida bajarmaganligi yoki ularning lozim darajada bajarmaganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud emasligi;

- kontragentda soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi.

25. Kontragentning ish sohasidagi obro'-e'tiborini tekshirish doirasida ijrochi quyidagi ma'lumotlarni aniqlaydi:

- ochiq axborot manbalarida kontragent, uning mulkiy egalari, shu jumladan benefitsiar mulkiy egalari yoki rahbarlarning firibgarlik, soxtalashtirish va korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar yoki boshqa noqonuniy faoliyatda ishtirok etganligi to'g'risidagi axborot mavjud emasligi;

- kontragent rahbariga nisbatan huquqni muhofaza qiluvchi yoki boshqa davlat organlarida qoralovchi ma'lumot yoki materiallarning mavjud emasligi;

- kontragent, uning mulkiy egalari yoki bosh direktor (boshqaruv organlari a'zolari) va boshqa rahbarlarning jinoiy tuzilmalar, ekstremistik va terroristik universitetlar bilan o'zaro aloqasi mavjud emasligi;

- kontragentning ishbilarmonlik ahloqiy me'yirlari va korrupsiyaga qarshi kurash masalalarini tartibga soluvchi tartib-taomil va siyosatlarning mavjudligi;

- kontragentning mulk egalari yoki rahbarlariga (boshqaniv organlari a'zolari) nisbatan uning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jinoyat ishlari mavjud emasligi;

- kontragent, uning mulk egalari yoki boshqa rahbarlari to'g'risida boshqa salbiy ma'lumotlar mavjud emasligi.

26. O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuning 14- moddasiga muvofiq, Davlat buyurtmachisining, davlat xaridlari elektron tizimi operatorining, ixtisoslashgan tashkilotning, ekspert tashkilotining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari, shuningdek xarid komissiyasining a'zolari hamda ekspertlar xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda o'z ishtirokidagi davlat xaridlari doir bitimning natijasi bo'lgan har qanday shaxsiy foydani bevosita yoki bilvosita olish huquqiga ega emas.

Shunga muvofiq, ijrochi ushbu Yo'riqnomaning 1-ilovasiga muvofiq shaklda to'ldirilgan kontragentning yakuniy benefitsiarlari to'g'disidagi ma'lumotnomada aks ettirilgan ma'lumotlarning tadbirkorlik sub'ektlari Yagona davlat reestri ma'lumotlariga muvofiqligini tekshiradi. Ushbu tekshiruv Kontragentning rahbarlari va ta'sischilariga nisbatan ham amalga oshiriladi. Shuningdek, ijrochi manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi yoki yo'qligini quyidagi mezonlar bo'yicha tekshiradi:

- kontragentning yagona yoki mulkiy egalaridan biri, shu jumladan, benefitsiar mulkiy egasi - bu Xarid jarayonining boshqa ishtirokchisi rahbari yoki uning yaqin qarindoshi emasligi;

- kontragentni tanlashda ishtirok etuvchi tashabbuskor yoki universitetning boshqa xodimlari yoki ularning yaqin qarindoshlari uning ustav kapitalidagi ommaviy aylanmada bo'lмагan aksiyalari yoki hissalariga, yoki kontragentning Respublika fond birjasida yoki yana boshqa bir fond birjasida ommaviy aylanmada bo'lган 5% dan ortiq qimmatli qog'ozlariga egalik qilmasligi;

- kontragentni tanlashda ishtirok etuvchi tashabbuskor yoki universitetning boshqa xodimlari yoki ularning yaqin qarindoshlari kontragent boshqaruv kengashi tarkibiga kirmasligi yoki uning faoliyati natijalaridan shaxsiy manfaatdorlikka (shu jumladan ularning investitsiyalarini amalga oshirishda) ega bo‘lmasligi;

- kontragentni tanlashda ishtirok etuvchi tashabbuskor yoki universitetning boshqa xodimlari yoki ularning yaqin qarindoshlari kontragentda rahbarlik lavozimi yoki qarorlar qabul qilish bilan bogliq lavozimlarda ishlamasligi;

- kontragent va Xarid komissiyasi a’zolan o‘rtasida affillanganlik aloqalarining mavjud emasligi;

- manfaatlar to‘qnashuviga olib keladigan boshqa sharoitlar.

Manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligini tekshirishni ijrochi kontragentlar tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarni manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiyalash doirasida universitet xodimlari tomonidan aks ettirilgan va tegishli reestrga kiritilgan ma’lumotlar bilan taqqoslash orqali amalga oshiradi.

V. Tekshiruv natijalarini rasmiylashtirish va hujjatlashtirish

27. O‘tkazilgan tekshiruv natijalari bo‘yicha ijrochi ushbu Yo‘riqnomaga 4-ilovada keltirilgan shaklda xulosa tuzadi. Kontragent tekshiruvi natijalari to‘g‘risidagi xulosaga ijrochi o‘tkazilgan tahlil va tahlilni tasdiqlovchi boshqa hujjatlarni ilova qiladi.

28. Real yoki potensial manfaatlar to‘qnashuvi alomatlari aniqlangan taqdirda ijrochi uni tartibga solish zaruriyati to‘g‘risida choralarini ko‘rish bo‘yicha Xarid komissiyasi raisi yoki tashabbuskorga taklif kiritadi. Agar manfaatlar to‘qnashuvi alomatlari universitet xodimlarida aniqlangan bo‘lsa, bu haqda Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasini (keyingi o‘rinlarda - Ichki nazorat tuzilmasi) xabardor qiladi. Manfaatlar to‘qnashuvi mavjud yoki mavjud emasligi bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil yakunlari va uni tartibga solish bo‘yicha choralar ham kontragent tekshiruvi natijalari to‘g‘risidagi xulosada aks ettiriladi.

29. Xatar indikatorlari aniqlanganda ijrochi kontragent tekshiruvi natijalari to‘g‘risidagi xulosada aniqlangan xatarlarni kamaytirishga yo‘naltirilgan kontragent bilan ishslash bo‘yicha tavsiyalarni taklif qiladi va aks ettiradi (masalan, shartnomaga avans to‘lovlarga taqiqni kiritish va boshqa).

30. Ijrochi kontragent tekshiruvi natijalari to‘g‘risidagi xulosani Xarid komissiyasi raisi yoki tashabbuskorga taqdim etadi. Xarid komissiyasi raisi yoki tashabbuskor olingan xulosani xarid ishtirokchisini tanlash to‘g‘risida qarorni qabul qilish doirasida hisobga oladi, bu haqda xarid komissiyasi yoki kontragent bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomaga tuzishdagi bayonnomada tegishli yozuv kiritiladi.

31. Kontragent va universitet xodimi o‘rtasida real manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lgan taqdirda, u Xarid jarayonini davom ettirishdan oldin universitetda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha ichki hujjatga asosan tartibga solinishi kerak. Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish imkonи bo‘lmagan taqdirda kontragent xarid jarayonida ishtirok etishdan chetlatilishi lozim.

32. Agar to‘g‘ridan-to‘g‘ri haridlar doirasida kontragentni tekshirish natijalariga ko‘ra, korrupsiyaviy xavf-xatarning mavjudligini yoki korrupsiyaga

qarshi kurashish tizimining yo‘qligini ko‘rsatuvchi ma’lumotlar aniqlansa, u holda kontragent bilan shartnama tuzish ehtimoli haqidagi qaror universitet rektori tomonidan qabul qilinadi.

33. Kontragent tekshiruvi natijalari to‘g‘risidagi xulosa majburiy tartibda xarid qilish jarayonlari natijalari to‘g‘risidagi qaror qabul qilish, shartnama bo‘yicha kelishish va to‘lovlarni amalga oshirish uchun talab etiluvchi hujjatlar paketiga qo‘sib qo‘iladi.

34. Tekshiruv natijalari to‘g‘risidagi xulosa chiqqanidan boshlab 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay Ichki nazorat tuzilmasi bu haqidagi ma’lumotni ushbu yo‘riqnomaga 5-ilovaga muvofiq shaklda Kontragentlarni tekshirish reestriga kiritadi.

35. Kontragentlarni tekshirish reestri va kontragentlarni tekshirish natijalari, shuningdek tekshiruv uchun ariza, kontragentni tekshirish natijalari to‘g‘risidagi xulosa, kontragentlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar hamda ijrochi tomonidan tegishli manbalardan olingan ma’lumotlar kontragent bilan shartnama munosabatlari to‘xtatilgan kundan boshlab kamida 3 (uch) yil Ichki nazorat tuzilmasida saqlanadi.

36. Kontragentlarni tekshirish reestri va kontragentlarni tekshirish natijalari, shuningdek tekshiruv uchun ariza, kontragentni tekshirish natijalari to‘g‘risidagi xulosa, kontragentlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar hamda ijrochi tomonidan tegishli manbalardan olingan ma’lumotlar konfedensial bo‘lib, universitet xodimlariga va xizmat vazifalari va vakolatlari bunday ma’lumotlardan foydalanishni o‘z ichiga olmagan boshqa uchinchi shaxslarga oshkor qilinmaydi.

VI. Yakuniy qoida

37. Kontragentlarni tekshirish jarayoni doimiy ravishda Ichki nazorat tuzilmasi tomonidan monitoring qilib boriladi.

38. Davlat xaridlari va korrupsiyaga qarshi qonunchilikning ushbu Yo‘riqnomaga ta’sir qiladigan normalari o‘zgarganda, ushbu Yo‘riqnomasi qayta ko‘rib chiqilishi kerak.

Toshkent arxitektura-qurilish
universitetida kontragentlarni
tekshirishga oid yo‘riqnomaga
1-ilova

Yakuniy benefitsiarlar to‘g‘risida

(xaridlar ishtirokchisi)

MA’LUMOTNOMA

Nº	F.I.Sh.	Tug‘ilgan sanasi	Shaxsning roli (raxbar/ta’sischi/yakuniy benefitsar)	Shaxs rahbar/ta’sischi/ yakuniy benefitsiar bo‘lgan davr	Ishtirok etish ulushi (faqat 5 foizdan ortiq ulushga ega ta’sischilar uchun), foizda
1.					
2.					
3.					
4.					
5.					
6.					
7.					
...					

*so‘nggi ikkiyil uchun to‘ldiriladi

Vakolatli shaxsning

F.I.Sh. _____

Xarid ishtirokchisidagi vakolatli shaxsning

lavozimi _____

Ma ’lumotnoma tuzilgan sana _____

Kontragentdan tekshirish uchun so‘raladigan hujjatlar

O‘zbekiston Respublikasida yuridik shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tgan kontragentlardan talab qilinadigan hujjatlar:

t/r	Hujjat nomi	Yuridik shaxs (YuSh) / Yakka tartibdagi tadbirkor (YaTT)	Yangi kontragent	Joriy kontragent
1	Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvolinomaning nusxasi	YuSh/YaTT	Majburiy	n/p
2	Soliq xisobiga qo‘yish, shu jumladan STIR to‘g‘risida ma’lumotlar	YuSh/YaTT	Majburiy	Majburiy
3	Yuridik shaxslarning yagona Davlat reyestriga kiritish to‘g‘risida ma’lumot	YuSh/YaTT	Majburiy	Majburiy
4	Ustav va boshqa ta’sis hujjatlarining nusxasi	YuSh	Majburiy	O‘zgarish bo‘lganda so‘rab olish
5	Pasport nusxasi	YaTT	Majburiy	O‘zgarish bo‘lganda so‘rab olish
6	Ishonchnoma	YuSh/YaTT	Majburiy	Majburiy
7	Kontragent egaligi tuzilmasi, bunga benefitsar mulkiy egalarni xam xisobga olgan holda barcha mulk egalari kiritiladi	YuSh	Majburiy	O‘zgarish bo‘lganda so‘rab olish
8	So‘nggi hisobot yili uchun buxgalteriya hisoboti yoki so‘nggi hisobot	YuSh/YaTT	Majburiy	Majburiy

	yili uchun auditorlik xulosasi			
9	Ko‘rsatilgan ishlar/xizmatlarni bajarish uchun malakali kadrlarning mavjudligi to‘g‘risida ma’lumot (xat va / yoki tasdiqlovchi hujjatlar shaklida taqdim etilishi mumkin)	YuSh	Majburiy	O‘zgarish bo‘lganda so‘rab olish
10	Muvofiqlik litsenziyalari va sertifikatlari	YuSh/YaTT	Sotib olingan tovarlar/ishlar/xizinatlar turiga qarab majburiy	Sotib olingan tovarlar/ishlar/xizinatlar turiga qarab majburiy

Toshkent arxitektura-qurilish
universitetida kontragentlarni
tekshirishga oid yo‘riqnomaga
3-ilova

Kontragentlarni tekshirish uchun ochiq axborot manbalari

1. Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tekshirish Davlat xizmatlari agentligi platformasi -
https://7fo.birdarcha.uz/s/ru_landing
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi —
<http://registr.stat.uz/>
3. Soliq organlarining elektron davlat xizmatlari portalı
<https://mv2.sohq.uz/iiiain/info/debtors?lane=uz>
4. O‘zbekiston Respublikasi ochiq ma’lumotlar portalı — <https://data.gov.uz/ru>
5. Toshkent shahar yer resurslari va Davlat kadastro boshqarmasi —
<http://kadastr.uz/iu/>
6. Insofsiz ijrochilarining yagona reyestri — <http://xarid.uz/unfairexecutor>
7. Iqtisodiy, ma’muriy, jinoiy va fuqarolik sudlarining sud hujjatlari —
<https://7public.sud.uz/4!/sign/view>
8. Ofshor zonalar ro‘yxati- http://www.fatf-gafi.org/publications/high-risk-and-other-monitored-i_urisdictions/documents/call-for-action-february-2021.html
9. AQSh maxsus toifadagi va taqiqlangan shaxslar ro‘yxati (yoki WorldCheck ma’lumotlar bazasi)- <https://sanctionssealc.ofac.treas.gov/>

Ushbu ro‘yxat ijrochi tomonidan tekshirish uchun tavsiya etilgan manbalar ro‘yxati bo‘lib, zarur bo‘lganda kengaytirilishi mumkin.

Kontragentni tekshirish haqidagi hisobot

- | | | | |
|--|---|-------------------------------|--|
| 1. Ishtirokchining ismi | <hr/> | | |
| 2. STIR | <hr/> | | |
| 3. Ro‘yxatga olingan sana | <hr/> | | |
| 4. Yuridik va amaldagi manzil | <hr/> | | |
| 5. Rahbarning FISH | <hr/> | | |
| 6. Ta’sischilarning FISH | <hr/> | | |
| 7. Yakuniy benifitsiarlarning FISH
Ishtirokchi tadbirkor | <hr/> | | |
| 8. Sub’ektlarning Yagona Davlat
reestrda bor | <hr/> | | |
| | Xa <input type="checkbox"/> | Yo‘q <input type="checkbox"/> | |
| 9. Ishtirokchidan imzo chekuvchi
shartnoma tuzishga haqli | Xa <input type="checkbox"/> | Yo‘q <input type="checkbox"/> | |
| 10. Ishtirokchining asosiy faoliyati
xarid predmetiga mos keladi | Xa <input type="checkbox"/> | Yo‘q <input type="checkbox"/> | |
| 11. Soliqlar va boshqa majburiy
to‘lovlarni to‘lashda qarzdorlikni yo‘qligi | Xa <input type="checkbox"/> | Yo‘q <input type="checkbox"/> | |
| 12. Ishtirokchiga nisbatan joriy
etilgan qayta tashkil etish, tugatish
(likvidatsiya), bankrotlik tartib-
taomillarining yo‘qligi | Xa <input type="checkbox"/> | Yo‘q <input type="checkbox"/> | |
| 13. Insofsiz ijrochilarning yagona
reestirda ishtirokchi haqida
yozovning yo‘qligi | Xa <input type="checkbox"/> | Yo‘q <input type="checkbox"/> | |
| 14. Universitet tizimida ishtirokchi
bilan ishslashning avvalgi salbiy
tajribasining yo‘qligi | Xa <input type="checkbox"/> | Yo‘q <input type="checkbox"/> | |
| 15. Ishtirokchi xaridning boshqa
ishtirokchilari bilan affilanmagan | Xa <input type="checkbox"/> | Yo‘q <input type="checkbox"/> | |
| 16. Manfaatlar to‘qnashushi/ishtirokchining
universitet xodimlari bilan
affilanganligi haqida
ma’lumot yo‘qligi | Xa <input type="checkbox"/> | Yo‘q <input type="checkbox"/> | |
| 17. Aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvini
tartibga solish chora-tadbirlari | <u>Manfaatlar to‘qnashubi tartibga
solish chora-tadbirlar tasifi</u> | | |
| 18. Korrupsiyaga oid qoidabuzarliklar
extimoli haqida ma’lumotlar | <u>Mavjud emas/Manba:[xavola], [Xarid
jarayonlari ishtirokchisining korrupsiyaga
oid qoydabuzarligi/poraxo‘rligi tavslifi]</u> | | |
| 19. Ish sxasidagi obro‘sining salbiy | | | |

omillari extimoli haqida ma'lumotlar

**Mavjud emas/ Manba: [xavola],
[ishchanlik obro'sining salbiy omillari
tavsifi]**

20. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xujjatlarning mavjudligi (veb-saytda taqdim etilgan yoki mavjud)

Xa

Yo'q

21. Ishtirokchining sayti

**Mavjud emas/Saytning manzili: [xavola],
faol/faol emas**

22. Itirokchi mavjudligi muddati (yillarda)

23. Ishtirokchining moliyaviy, moddiy, texnik, kadrlar va boshqa resurslari miqdori shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish uchun yetarli

Xa

Yo'q

24. Ishtirokchi tekshirish uchun barcha zarur xujjatlarni taqdim etgan

Xa

Yo'q

25. Agar taqdim etmagan bo'lsa, taqdim etimaganlarini ko'rsating:

Xisobotga ilova qilingan boshqa materiallar

- a) [Xujjat/ materialning qisqacha tavsifi]
- b) [Xujjat/ materialning qisqacha tavsifi]
- v) [Xujjat/ materialning qisqacha tavsifi]
- g) [Xujjat/ materialning qisqacha tavsifi]

Xatarlar aniqlanganligini (xa, yuq) va agar shunday bo'lsa, qanday xatarlar va ularni qanday kamaytirish mumkunligi

Xarid jarayoni ishtirokchisini tekshirishni amalga oshirgan xodim haqida ma'lumotlar

F.I.Sh.

Lavozimi

Hisobot tuzilgan sana

Lotning raqami

Imzo

Toshkent arxitektura-qurilish universitetida kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnomaga 5-ilova

Xarid jarayonlari ishtirokchilarini/kontragentlarni tekshirish reyestri